

# TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

## XALQARO HARBİY HUQUQ, TOMONLARNING QONUNIY MAJBURIYATLARI VA FUQARO MUHOFAZASI

**Abdusalomov Ulug'bek Sattarovich**

*Farg'onan davlat universiteti*

*Harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

*Zaxiradagi Mayor*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada Xalqaro harbiy huquq, undagi tomonlar, tomonlar harakat cheklvlari, fuqarolar, asirlar bilan olib boriladigan faoliyat jarayonlari va bir qator gumanitar harbiy huquq haqida izlanishlar olib borilgan.

**Kalit so'zlar:** fuqaro ob'ektlari, huquq, asir, himoya ramzlari.

Barcha gumanitar huquqlar kuch faqat o'zлari qo'llagan kuch qo'llash bilan tahdid solgan kishilarga qarshi ishlatalishi mumkin bo'lgan tamoyilga asoslangan. Odatda kuch ishlata digan yoki kuch ishlatalish huquqiga ega bo'lganlarni kombatantlari yoki urushayotgan tomonlar deb ataydilar. Kombatantlar bo'lmanalar, buning nechog'li imkoni bo'lsa, hujum yoki zo'ravonlik ob'ektlariga aylanmasliklari kerak.

1907 yilgi Gaaga qoidalarining 1-moddasi «urushayotgan» atamasining quyidagi ta'rifini berdi:

Harbiy qonunlar, huquqlar va majburiyatlar nafaqat armiyaga, qolaversa, agar quyidagi barcha shartlarni qanoatlantirsa, lashkar va ko'ngilli otryadlarga ham qo'llanadi, jumladan:

- 1) o'z bo'ysunuvchilari uchun javobgar bo'lgan shaxs rahbarligidagi;
- 2) muayyan va uzoqdan yaqqol ko'rindigan farqlovchi belgilarga ega bo'lgan;
- 3) oshkora qurol taqib yuradiganlar;
- 4) o'z harakatlarda urush qonunlari va odatlariga rioya qiladigan bo'lsa».
- 5) o'z ixtiyor bilan qo'liga qurol olgan noharbiy shahslar, hatto, muntazam otryadlar tarzida shakllanmagan taqdirda ham, aytib o'tilgan moddaga muvofiq, agar shu yo'sinda oshkora qurol olib yurishsa va urush oddatlariga rioya etishsa, «urushayotgan» tomonlar deb e'tirof etiladi. Bundan tashqari, 3-moddada

## TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

yuzaki tarzda «jang qilayotgan» va «jang qilmayotganlar» atamasi ishlatalidi; ular o'rtasida tafovut keltirilmaydi.

### 1. Xalqaro qurolli mojarolar.

Jeneva huquqining ko'p sonli normalaridan kelib chiqqan holda tegishli sohani butunlay bo'lmasa ham qamrab oluvchi olti printsipni ko'rsatishimiz mumkin:

- Dushmanga nisbatan qurolli mojarolar huquqini qo'llagan holda olib boriladigan harbiy harakatlar huquqbazarlikka kirmaydi
- Kasallar va yaradorlar yordam olish va davolanish huquqiga ega
- Dushman qo'li ostidagi har qanday shahs, xech qanday kamsitishlarsiz, insoniyarcha muomala huquqiga ega
- Dushman xukmronligi ostidagi shahslarning huquqlari dahllsiz va ajralmas hisoblanadi.
- okkupatsiya bosib olingan hududning maqomini o'zgartirmaydi
- harbiy harakatlarning tugashi harbiy asirlar va internirovan qilingan fuqaro shahslarni ozod qilishni va repatriatsiya qilishni ko'zda tutadi

Harbiy bo'lмаган шахслар

1. Ularga xurmat bilan qara.
2. O'z xukming ostida bo'lганларга инсонпарварларча муносабатда бо'l.
3. Ularni yomon muomaladan himoya qil. Esingda bo'lsin, qasos olish va garovga olish xollari taqiqlangan.
4. Ularning mol-mulkini xurmat qil; mol-mulkni buzish va o'g'irlash taqiqlanadi.

Harbiy ob'ektlar - bular harbiy kuchlarga, ularning shaxsiy tarkibiga, harbiy muassasalarga, binolarga, pozitsiyalarga va boshqalarga taalluqli bo'lgan, yani o'z xususiyati, vazifasi yoki xizmat qilishi jixatidan harbiy xarakatlarga samarali ulush qo'shadigan (harbiy tibbiy xizmatlar, harbiy ruxoniylar xodimlar va ularning mol - mulkidan tashqari) barcha narsalardir. SHundy qilib, harbiy ob'ektlar jumlasiga kombatantlar, harbiy muassasalar va transport vositalari, shuningdek, pozitsiyalar hamda joyning taktik axamiyatga ega bo'lgan uchastkalari kiradi.

Fuqaro ob'ektlari - bular harbiy ob'ekt bo'lмаган va dushman tomonidan harbiy maqsadlarda foydalanilmaydigan xamma narsalardir.

Himoya ramzlari va Alovida himoya qilinadigan ob'ektlar. Odamlar, binolar, inshootlarni himoya qilish maqsadida Xalqaro etirof etilgan bir qator ramzlar va belgilardan foydalaniildi.

## TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

Fuqaro mudofaasi-bular xalqning madaniy va manaviy merosi bo'lgan ob'ektlar, masalan, arxitektura, sanoat yoki tarix yodgorliklari, tarixiy yoki badiiy jixatdan qiziqarli bo'lgan joylar, muzeylar, kutubxonalar, arxiv saqlanadigan joylar va boshqalardir.

Dambalar, to'g'onlar, atom elektr stansiyalari-Xavfli kuchlarni o'zida saqlab turuvchi, xujum qilingan takdirda Xavfli kuchlar nazoratdan chiqib ketishi xamda tinch axoli orasida og'ir qurbanlarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan qurilmalar va inshootlardir.

Demilitarizatsiya qilingan zona - bu kombatantlar, jangovar vositalar, harbiy anjomlar bo'lмаган, mamurlar va harbiy bo'lмаган axoli tomonidan dushmanlik sayi-harakatlari bilan bog'liq hech qanday faoliyat olib borilmayotgan joydir. Demilitarizatsiya qilingan zona maqom manfaatdor tomonlar o'rtasidagi bitimga muvofiq beriladi (tinchlik vaqtida yoki urush xarakatlari boshlanganidan keyin).

53-modda 1-bandining qurolli mojaro ro'y bergan taqdirda urushayotgan tomonning urush olib borish usullari yoki vositalarini tanlash huquqlari cheklanmagan sanaladigan asosiy normasi va Gaaga qoidalarining 22-moddasida mustahkamlab qo'yilgan ilgari mavjud bo'lgan shunga o'xshash norma bular - zo'ravonlikka faqat aniq maqsadga, ya'ni aynan dushmani yanchib tashlashga erishiladigan darajada yo'l qo'yilishi to'g'risidagi umumiylashtirish. Falsafa ma'rifatini va urush huquqi asoschilaridan biri Jan-Jak Russo ta'limotini ilhomlantirgan ratsionalizm va inson parvarlik yagona maqsad-dushmani mag'lub etishga erishilishi uchun zarur bo'lмаган azob-uqubatlarni yetkazmaslikni, tajovuz sodir etmaslikni yoki zarar yetkazmaslikni talab qilar edi. Azob-uqubat, jarohat, vayronagarchilik yoki zarar hech qachon shaxsiy maqsadlarda yoki jazo tariqasida yetkazilmasligi lozim. Buning natijasi - qonuniy harbiy maqsadlarga erishilishiga imkon beruvchi turli vositalar orasidan kamroq azob - uqubat, jarohat, vayronagarchilik yoki zarar yetkazadiganini tanlab olish lozim. Deydilarki, masalan, dushman askari uni asirga olish yo'li bilan safdan chiqarilishi mumkin bo'lsa, yarador qilish shart emas; bordiyu uning harakatga layoqatsizligi ta'minlanishi mumkin bo'lsa, uni o'ldirish mumkin emas; agar yengil jarohat natijasida u zararsizlantirilishi mumkin bo'lsa, unga jiddiy jarohat yetkazish mumkin emas.

Albatta, bunday hulosani u askarni jang paytida faqat dushman tanasining hayotiy jihatdan kam ahamiyatli qismini nishonga olishga majburlashi uchun mutlaqlashtirish mumkin emas. Ammo u muhim xulosalarga olib keladi,

## TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

boshqacha aytganda, u mavjud cheklashlarning ko‘pchiligin real tarzda asoslaydi. Ular, jumladan, haddan tashqari azob - uqubat yetkazishga qodir bo‘lgan vositalar va usullardan foydalanishning taqiqlanishiga taalluqlidir. Talablar noharbiy axolii va kombatantlar, shuningdek, noharbiy ob’ektlar va harbiy ob’ektlar o‘rtasidagi farqlarni har doim keltiradi, shunga muvofiq, harbiy harakatlarni faqat harbiy ob’ektlarga qarshi yo‘naltirish talabi (1977 yil I Protokolning 48-moddasi), shuningdek, dushman bu xildagi ob’ektlarga qarshi xujumlardan foydalanish bilan mag‘lub etilishi mumkinligi va, shunday eakn, harbiy harakatlarni noharbiy axoliga qarshi yoki noharbiy ob’ektlarga qarshi yo‘naltirish zarurati yo‘qligi to‘g‘risidagi qoidalardan kelib chiqadi. CHunki istalgan maskanda joylashgan ob’ektlarga havo xujumini ancha osonlik bilan uyushtirish mumkin va davlatlarning iqtisodiy hamda sanoat integratsiyasi o‘sib qonuniy harbiy ob’ektlar ro‘yxati ko‘payib borayapti, ammo norma va asosiy sabab saqlanib qolmoqda.

Tafovut tamoyili 35-moddada urush olib borish vositalari va usullariga taalluqli asosiy normalar sirasida qayd etilmagan, ammo u noharbiy aholini himoya qilish munosabati bilan 4-bo‘limning 48-moddasida qayd etiladi. 35-modda 3-bandı tag‘in bir asosiy normani, ya’ni aynan tabiiy atrof-muhit muhofazasini kiritadi. Bu qoida, xuddi yuqorida so‘z yuritilgan ikki boshqa qoida singari, dushman ustidan g‘alaba qozonishda mujassamlashgan qonuniy maqsadga erishish uchun «tabiiy muhitga keng ko‘lamli, uzoq davom etuvchi va jiddiy zarar yetkazishini kutish mumkin bo‘lgan» «usullar va vositalar»ni qo‘llashga zarurat yo‘q, degan qoidaga asoslangan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. F.A. Abdullaev. Qurolli to‘qnashuvlar huquqi. 2001.

3.Halqaro qizil hoch qumitasi. Harbiy harakatlar ishtirokchilarining ahloq kodeksi. 2004.

4.1949 yillik avgustdagagi Jeneva konvensiyalari va ularga qo‘shimcha protokollar. 2007.